


2019-yilning yanvar-noyabr oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6508,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 101,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 32,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat – 7,0 % ga o'sishi hisoblangan bo`lsa tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – 20,1 % ga kamayishi kuzatildi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



* *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi* ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 22,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tog`-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajim indeksi 79,9 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.





Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3666,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 56,3 %ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'inining ulushi 6,2 % ni (2018-yil yanvar-noyabr oylarida – 5,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 5,7 % (6,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 19,1 % (20,5 %) va quyi texnologiyali – 69,0 % (68,4 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



Jami sanoat tarkibida yog`och va po`kak buyumlar, qog`oz va qog`oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish – 1,0 % (2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 18,2 %), asosiy farmasevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish – 6,2 % (31,0 %), boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish sohasi – 14,5 % (11,5 %), elektr uskunalar va boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar – 4,6 % (14,8 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yumshoq bug`doy va spelta uni – 101,6%, boshqa tolali materiallardan(yog`ochdan tashqari) olingan seluloza – 197,5, etilen polimerlardan qoplar va sumkalar – 286,5%, yo'l qoplamlari uchun asfaltli aralashmalar – 129,2% ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari sanoat sohasida hizmatlar ko`rsatish hajmini oshirish imkonini berib, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonning bir qismini bajarish (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 375,0%), taylor metal buyumlarini ta`mirlash va tehnik hizmat ko`rsatish (105,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-noyabrd ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabrd ishlab chiqarilgan	2018 yil yanvar- noyabrga nisbatan, %
Sellyuloza, ming t 90%			
662,7		1308,6	197,5
Un, ming tonna			
32,5		33,1	101,6
Ho'jalik sovuni tonna			
1051,0		804,4	76,5
Kalava ip, tonna			
3832,3		2712,4	70,8
Paxta tolasi, ming tonna			
38,4		24,1	62,9
Paxta urug'i, ming tonna			
60,5		37,8	62,5
Kunjara, ming tonna			
36,2		19,5	54,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna			
7,9		3,6	45,3
Aroq – mig litr 100 % spirit			
933,3		480,0	51,4

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2641,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 40,6 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 94,1 % ni tashkil etgani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-noyabrdagi ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabrdagi ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar-noyabrga nisbatan, %
--	-----------------------------	--	---

Elektroenergiya, mln.kVt/s

14478,5



13591,1

93,8



Issiqlik energiyasi, ming Gkal

199,6



212,5

106,5





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 178,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar – 1,4 martaga, oqova suvlarni yo'qotish, shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar – 4,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	Sanoati mahsulotlari	2019-yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarilgan	2018-yil yanvar- noyabrga nisbatan, %
---	----------------------	---	--

Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln so`mda

9112,2



12578,9

138,0 ↑

Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so`mda

2312,8




10249,3

443,2 ↑

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2398,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,8 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va 2018 yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 63,8 % dan 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida 64,6 % ga oshishi kuzatilmogda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 4,4 % ni (2018-yil yanvar-noyabr oylarida 5,1 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2018 yil yanvar-noyabrga nisbatan o'sish, %
Sirdaryo viloyati	2398,1	100,0	104,4
Guliston shahri	441,1	18,4	112,3
Shirin shahri	21,2	0,9	94,6
Yangiyer shahri	138,9	5,8	218,6
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut tumani	230,6	9,6	50,8
Guliston tumani	68,0	2,8	96,3
Mirzaobod tumani	294,9	12,3	193,1
Oqoltin tumani	75,0	3,1	110,2
Sardoba tumani	66,3	2,8	107,2
Sayhunobod tumani	143,4	6,0	117,0
Sirdaryo tumani	813,5	33,9	135,4
Xovos tumani	105,2	4,4	95,5

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1549,2 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalararning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 23,8 % ni tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.

2018 yil
yanvar-noyabr

2019 yil
yanvar-noyabr




Xorijiy investisiyalari ishtirokidagi
korxonalar



Boshqa korxonalar

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi – 95,5 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarining ulushi - 4,5 % ni tashkil etdi.

**Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %**




Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2019 yil yanvar-noyabr, mlrd. so'm	2018 yil yanvar-noyabrga nisbatan, %
Sirdaryo viloyati	6508,3	101,9
Guliston shahri	974,5	119,4
Shirin shahri	2508,4	114,4
Yangiyer shahri	262,7	106,7
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	246,7	104,0
Guliston tumani	105,7	100,7
Mirzaobod tumani	245,9	103,0
Oqoltin tumani	158,6	113,7
Sardoba tumani	198,9	80,8
Sayhunobod tumani	264,8	107,8
Sirdaryo tumani	1402,5	105,9
Xovos tumani	139,6	105,2

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,5 %), Sirdaryo tumani (21,5 %), Guliston shahri (15,0 %), Sayhunobod tumani (4,1 %), Yangiyer shahri (4,0 %) va Boyovut tumani (3,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab
chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar- noyabr
oylariga nisbatan %**




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Shirin shahri (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,4 %), Guliston shahri (119,4 %), Oqoltin tumani (113,7 %), Yangiyer shahri (106,7 %), Sirdaryo (105,9 %) va Xovos (105,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Yangiyer shahri (2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 218,6 %), Mirzaobod tumani (193,1 %), Sirdaryo tumani (135,4 %), Sayhunobod tumani (117,0 %), Guliston shahri (112,3 %), Oqoltin (110,2 %) va Sardoba tumanlarida (107,2 %) iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta ulushi Sirdaryo tumani (viloyat iste'mol tovarlari hajmida 33,9 %), Guliston shahar (18,4 %), Mirzaobod (12,3 %) va Boyovut (9,6 %) tumanlarida ishlab chiqarildi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari
ishlab chiqarishining, 2018-yil yanvar-noyabr oylariga
nisbatan o'sishi %**




Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Shirin shahrida (134861,8 ming so'm), Guliston shahrida (10875,6 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (11078,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7786,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 2869,2 ming so'm bo'lgani holda Sirdaryo tumanida – 6425,0 ming so'mni, Guliston shahrida – 4923,5 ming so'mni, Mirzaobod tumanida - 4101,5 ming so'mni va Yangiyer shahrida – 3244,4 ming so'mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari va istemol mollari ishlab chiqarish,
ming so'm**

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Istemol mollari
Sirdaryo viloyati	7786,9	2869,2
Guliston shahri	10875,6	4923,5
Shirin shahri	134861,8	1138,0
Yangiyer shahri	6137,3	3244,4
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut tumani	1927,5	1801,5
Guliston tumani	1482,4	954,3
Mirzaobod tumani	3419,5	4101,5
Oqoltin tumani	3090,9	1462,8
Sardoba tumani	3055,4	1018,9
Sayhunobod tumani	3470,1	1879,0
Sirdaryo tumani	11078,8	6425,0
Xovos tumani	1480,6	1116,0

**2019-yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sishi
2018-yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan %**




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3121,6 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik biznesning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar
va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarishdagi ulushi, %**




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Mirzaobod tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Sirdaryo tumanida (84,2 %), Guliston shahrida (81,2 %), Sardoba tumanida (86,4 %), Guliston tumanida (68,8 %), Sayhunobod tumanida (68,3 %), va Boyovut tumanida (65,1 %) kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichik ulush Xovos tumanida (57,9 %), Oqoltin tumanida (45,9 %) va Shirin shahrida (0,9%) kuzatildi.


Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 1694 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatmoqda, shundan 512 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 22,1 %) Guliston shahriga, 113 tasi (15,2 %) Sirdaryo tumaniga, 78 tasi (10,5 %) Xovos tumaniga to'gri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil yanvar-noyabr)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni, birlik (2019-yil yanvar-noyabr)



**Sirdaryo viloyati Statistika
boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo`limi
Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23**